

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2021-6

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2021

ТАРИХ ФАНЛАРИ

Sobirov S.U., Ismoilov Sh.Z. VIII-XIII asrlarda Xorazm tangalarida ot tasviri	94
Бабожонов Д.К. Эл эъзозлаган устоз	97
Бобоев Ф.С. Туркменистон ССРда совет ҳокимиятига қарши кураш (1927 йил)	100
Ғаффоров Ш.С. Ўзбекистон мадрасалари тарихидан	103
Жўраев Х. Чор Россиясининг Туркистондаги миллий маориф соҳасидаги сиёсати	108
Кудайбергенов С. Приаралье в системе путей эпохи бронзы и раннего железа	110
Қудратов С., Тувалов Х. Ўрта Сирдарё хавзасидаги Қанг давлатининг ёзма ва археологик манбалар асосида қисқача таҳлили	113
Мажидов Ж.Ж. XX аср 70- йилларининг 2- ярмида Бухорода телефон хизмати хусусида	115
Пирниязова Т.О. «Харбий коммунизм» сиёсати замондошларининг баҳолашида	117
Равшанов Ш.Р. Россия империясининг Фарғона вилоятидаги таълим сиёсати ва унинг оқибатлари	121
Садуллаев Б.П., Абдуллаев Ж.Р. Қалъжиқ-қалъа ёдгорлигини сақлаш масалалари ва туристик объект сифатида фойдаланишнинг истикболлари	123
Сулайманов С.А. Амударё флотилиясининг ташкил топиши ва фаолияти тарихидан	128
Файzieva Ф.И. XIX аср охири ва XX аср бошлари Бухоро амирлигининг маъмурий-худудий тузилиши ва аҳоли таркиби	130

ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Talapova N. Zamonaviy sharoitlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	134
Муродов Х.С. Ҳаракатлар стратегиясида туризмни ривожлантириш истикболлари	136
Арипов О.А. Ўзбекистонда ишбилармонлик муҳитини ривожлантириш муаммолари	139
Досчанов А.Т. Тадбиркорлик баркарорлиги, хавфсизлигини таъминлашда ўрта синф ва инсон капиталининг ўзаро мутанасибликда ривожлантириш зарурлиги	142
Миратдинов С.Қ. Қорақолпоғистон Республикасини комплекс ривожлантиришда инвестицияларнинг моҳияти ва эркин иқтисодий зоналарни ташкил этиш йўналишлари	147
Олланазаров Б.Д., Маткаримов Ф.Б. Ўзбекистон Республикаси ва унинг ҳудудларида агротуризмни ривожлантириш муаммолари ва истикболлари	150
Отамуродова Д. Экологик омилларни аграр соҳа иқтисодиётига таъсири	153
Сирожидинов И.Қ., Ботирова Р.А. Коронавирус пандемияси шароитларида ҳудудларнинг иқтисодий ривожланишини молиявий қувватлашнинг долзарб йўналишлари	155
Тўхтасинова М.М. Тўқимачилик саноати корхоналарида ишчанлик фаоллигини бошқаришни такомиллаштириш йўналишлари	157

ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Abbozov O.Q. Farg'ona vodiysi oronimlari	161
Abdukadirova G.B., Rajabova D.B. Linguacultural peculiarities of translation	162
Abdullaeva G.V. Abdurahmon Akbar ijodida lirik qahramon va obraz yaratish mahorati	165
Akmalova Z.N. The interactive methods and principles of foreign language teaching	167
Amirkulova N. Problems of phraseology in English linguistics	169
Djumaniozova E. Using modern information technologies in the teaching English language	171
Duldulova N.A. Features of translations from English into Uzbek	172
G'ulomov J.J. Communicative features of political texts	174
Idiyeva L.I. O'quv jarayonida hazil-mutoyibadan foydalanish pedagogik mahorat belgisidir	176
Jumayeva Sh.Sh. Grammatika – til o'rganishning asosi	178
Kasimova M.B. Rus tili darslarida ta'lim tashkiloti usulidan foydalanish	181
Khaidarova N.G. The quality of mind map technology in english classes	182
Madaminova Q.A., Djumaniozova Z.N. Computer-assisted language learning (CALL) and language skills	184
Madiyova V.Q. Grammatical and phonetic-grammatical archaisms in English and Uzbek	186
Mahmudova N. So'z modelidagi sintagmalarda grammatik mazmun ifodasi	189
Murodov N. The method of "case study" in the teaching foreign language	191
Murodov G.N., Qobilova F.T., Turayeva X.T. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanining inglizcha tarjimasini va unda aks etgan tabiat tasvirining tarjimadagi in'ikosi	193
Muxitdinova D. Oliy ta'limda rus tilini o'qitishning metod va tamoyillari	196
Norova B.Yu. The role of educational games in english language lessons	197
Nurboeva D.N. Zamonaviy Eron bolalar yozuvchilari	198
Qodirova G. O'zbek adabiyotshunosligi tarixida yangi metodika yaratishdagi izlanishlar	201
Qosimova S.S. Some problems of the training english language of higher education system	204
Sabirova D.D. Corpus based analysis of gender related address forms in English	205
Shomurodova Z.R. Teaching foreign languages through authentic materials to ESP classes	207
Sulaymonova D.H. Ingliz va o'zbek tillarida "mehnat"ni ifodalovchi maqollarni qiyosiy tahlili	209
Usmanova M. "Qo'qon xonligi tarixi" asarida forsha-tojikcha izofiy birikmalarning morfologik	211

**ABDULLA QODIRIYNING "O'TKAN KUNLAR" ROMANINING INGLIZCHA TARJIMASI VA
UNDA AKS ETGAN TABIIAT TASVIRINING TARJIMADAGI IN'IKOSI**

G.N. Murodov, prof., f.f.d., Buxoro davlat universiteti, Buxoro

F.T. Qobilova, o'qituvchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

X.T. Turayeva, o'qituvchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Maqolada «O'tgan kunlar» asarining inglizcha tarjimasidagi qahramonlari va tabiiat tasviri tahlili berilgan. Bundan tashqari, asarning asl mazmuni haqidagi qarashlar berilgan. Badiiy asarda berilgan tabiiy landshaftlarni tasvirlash ijodiy badiiy mahoratni namoyish etuvchi omillardan biridir. Chunki tabiiat manzaralarini tasvirlashda rassomning o'zi egallagan makonda munosabati, u bu joyni qay darajada bilishi, qahramonlar dunyosi va ular yashaydigan muhitni qanchalik chuqur his etishi muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun tabiiy landshaftlarni tasvirlash badiiy asarning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi.

Kalit so'zlar: badiiy mahorat, asar, tarjima, qahramon, tabiiat tasviri, tahlil, Bundan asl mazmun, tabiiy landshaft, tasvirlash, ijodiy, badiiy qismi.

Аннотация. В статье представлен анализ героев «Минувших дней». Кроме того, даны мнения авторов по поводу первоначального смысла произведения. В то же время были события, очень характерные для того периода и непосредственно связанные с общественным развитием. Изображение природных ландшафтов в произведениях искусства – один из факторов проявления творческого художественного мастерства. Потому что в изображении природных пейзажей отношение художника к запечатленному пространству насколько он знает это место, насколько глубоко он чувствует мир героев и среду, в которой они живут. Поэтому изображение природных пейзажей – неотъемлемая часть художественного произведения.

Ключевые слова: представлен, анализ героев, мнения авторов, первоначального смысла, произведение, изображение, природных ландшафтов, произведениях искусства, художественного мастерства.

Abstract. The article provides an analysis of the heroes of "Days Gone by". In addition, the views of the authors on the original meaning of the work are given. At the same time, there were events that were very characteristic of that period and were directly related to social development. The novel refuses to tell historical facts and the events are told in connection with a special event that constitutes the content of the novel.

The depiction of natural landscapes given in works of art is one of the factors that demonstrate the creative artistic skill. Because in the depiction of natural landscapes, the artist's attitude to the space he captures, how much he knows the place, how deeply he feels the world of heroes and the environment in which they live. Therefore, the depiction of natural landscapes is an integral part of the work of art.

Key words: depiction, natural landscapes, works of art, demonstrate, artistic skill, depiction, natural landscapes, artist's attitude, environment integral, art.

Kirish

Mustaqillik davri o'zbek adabiyotida adabiy tur va janrlarning rivojlanishi bilan bir qatorda badiiy tarjima amaliyotida ham o'sish-o'zgarishlar yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Ayniqsa, hozirgi vaqtda ingliz, nemis, fransuz kabi tillardan asliyatga asoslangan tarjimalarning amalga oshirilayotgani quvonarli holdir. Bu borada yosh mutarjimlarning o'z iqtidorini sinovdan o'tkazayotgani, Sharq va G'arb xalqlari adabiyoti namunalarini bevosita ona tilimizga o'girishga dadil kirishayotgani katta umid uyg'otadi.

Ayni paytda o'zbek adabiyoti durdonalarini xorijiy tillarga tarjima qilish borasida ham muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Bu sohadagi ishlarning izchil tus olganini O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi qoshidagi badiiy tarjima va xalqaro aloqalar bo'limining Respublikamizdagi yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida

poytaxt va viloyatlardagi oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlikda "Yosh tarjimonlar maktabi"ni tashkil etgani, yosh tarjimonlarning ilk tarjima asarlari "Adib" nashriyotida chop etilayotgani, "Jahon adabiyoti" jurnalining muntazam chiqib turgani va amalga oshirilgan boshqa ko'plab tadbirlar misolida ko'rish mumkin. Zero, o'zbek adabiyoti namunalarini chet tillariga, jahon adabiyoti sara asarlarini ona tilimizga munosib tarzda tarjima qilib taqdim etishdek sharaflı vazifa bugungi navqiron avlodning iqtidori, g'ayrat-shijoatiga bog'liqligi sir emas.

Mavzuning dolzarbligi va hozirgi holati

Davlatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyev tomonidan belgilab berilgan vazifalar, badiiy adabiyotni taraqqiy ettirish bo'yicha bildirgan fikr-mulohazalari, tavsiyalardan kelib chiqsak, bugungi adabiy jarayonda badiiy tarjimaning o'rni, tarjimashunoslik, tarjima tanqidi sohalaridagi yutuq va kamchiliklarni tahlil, talqin etish, muayyan xulosalar chiqarib olish kun tartibidagi muhim vazifalar sirasidan ekani ayonlashadi.

Badiiy asarlarda berilgan tabiat manzaralari tasviri ijodkor badiiy mahoratini namoyon etadigan omillardan biri hisoblanadi. Chunki tabiat manzaralari tasvirida ijodkorning o'zi qalamga olayotgan makonga munosabati, u joyni qanchalik bilishi, qahramonlar dunyosi va ular yashayotgan muhitni ne chog'lik chuqur his qilishi bilinadi. Shu bois tabiat manzaralari tasviri badiiy asarning tarkibiy qismi hisoblanadi.¹⁷

Badiiy asarda muallif o'z muddaosini ro'yogga chiqarish uchun tasviriy va ifodaviy vositalardan foydalanadi. Asardagi tabiat manzaralari kitobxonning biror narsa haqida tasavvur hosil qilishi, muayyan tuyg'uni his etishi, ko'rish, eshitish mumkin bo'lgan narsa va obrazlarni inson ongida hosil qiluvchi unsurlar tasviriy vositalar hisoblansa, asarda so'z va iboralarning turli ma'no tovlanishlari, majoziy xususiyatlari, voqea-hodisalarni turli yo'llar bilan ifodalash usullari-ifodaviy vositalar sanaladi.

Yozuvchi mahoratining qirralari asar yaratishda qo'llanilgan badiiy tasvir va ifoda vositalari bilan aniqlanadi. Ana shunday vositalardan biri badiiy asarda muhim ahamiyat kasb etuvchi tabiat tasviridir. Tabiatning betakrorligi uni insonda uning ruhiyatida aks etadi. Inson dunyoga kelgach tabiat bilan hamnafas bo'lib, uning inijliklari-yu, atrofga taratayotgan go'zalliklaridan bahra olib yashaydi. Tabiatga shaydolik, undan ilhomlanish faqat insonga xos. Inson tabiat inom etgan go'zalliklardan o'ziga xos taassurotlar hosil qiladi.

Faqatgina san'at sohiblari: yozuvchi va shoir badiiy so'z vositalaridan, rassom xilma-xil bo'yoqlardan foydalangan holda ana shu taassurotlarni asarlarda aks ettira oladi. Qaysi bir asarni o'qimaylik, unda, albatta, tabiat tasviriga duch kelamiz. Haqiqiy ijodkor insonni ona tabiat bilan birga, doimiy uyg'unlikda tasvirlaydi.

Yozuvchi asar yaratayotganida har bir hodisa, tabiat manzarasi, umuman, voqelikka o'z nazari bilan qaraydi. U asar g'oyasidan kelib chiqib, mos detal tanlaydi va o'sha tanlangan detal orqali asar mazmunida salmoqli o'rin tutgan fikrni ifodalaydi. Masalan, badiiy asarlarda tabiat tasviri berilayotganda ijodkorlar tez-tez murojaat qiladigan *yomg'ir* tasvirini har kim o'ziga, o'z kayfiyatiga uyg'un, vaziyatni hisobga olgan holda beradi: "mayin, beg'ubor yomg'ir tomchilari", "hayotbaxsh yoqimli yomg'ir", "bahor yomg'iri" va shunga o'xshash tabiat hodisalari inson ruhiy holatining ijobiy tomonlari, hayotning go'zalligi, mazmuni, ko'klam tarovatini tarannum etsa, "qora bulut", "chaqmoq", "sovuq yomg'ir tomchilari", "kuchli jala" kabi tasvirlar inson ruhiyatidagi salbiy holatlar, qo'rquv, ichki g'alayon, xavf-xatar yoki tushkunliklardan darak beradi. Bunday tasvirlarda san'atkor tabiat hodisasi bo'lgan yomg'irni asar ixtiyoriga bo'ysundiradi, asar personajlari yoki bosh qahramonning ichki kechinmalari, voqelikka munosabatini shu tasvir vositasida ifodalaydi va bunda san'atkorning o'ziga xos uslubi namoyon bo'ladi. Bunda ko'p narsa asarda ifodalanadigan fikr, tanlangan mavzu, voqealar tavsifiga bog'liq.

Tajriba qismi (tadqiqotni amalga oshirish)

Tarjimon asarni tarjima qilishga kirishishdan oldin ana shu jihatlarni aniqlab olmas ekan, asar "qalbiga yo'l topa olmaydi", ya'ni muallif muddaosini asar tarjimasini o'quvchi kitobxoniga yetkazib bera olmaydi. XX asrga qadar "tarjima" so'zi faqat tarixiy, falsafiy, adabiy va badiiy asarlar o'girmasiga nisbatan qo'llanib kelingan. Og'zaki tarjimonga nisbatan esa turkiy xalqlarda "tilmoch", nemis tilida "dolmetchen", ingliz va frantsuz tillarida "interpret" atamallari qo'llanilgan. Tarjima nazariyasi xususida aytilgan fikrlar ham shu yo'sinda umumiy ma'no kasb etgan.

Abdulla Qodiriy tabiatni tasvirlar ekan, jonlantirish, o'xshatishlar, sifatlashlarni ko'p qo'llaydi. Masalan, romanning "**Jonso'z bir xabar va qo'rqunch bir kech**" nomli bobidan bir parcha:

"Oyning o'n beshlari bo'lsa-da, havoning bulutlig'i bilan oy ko'rinmas, chin ma'nosi bilan qorong'i kuzning qorong'i bir tuni edi. Bir necha yuz yillardan beri yashab favqulodda zo'rayib ketgan "Xo'ja Maoz" mozorining chakaligi bu qorong'iliqqa bir manba' kabi edi. Kuchlik bir yel turg'an, qandaydir bir ishga hozirlang'an kabi to'rt tomonga yugurib yurar edi. Muzor chakaligining bir burchagida tutab yotgan to'nka yonida sochlari o'sib soqolig'a qo'shilib ketgan bir devona bu mudhish qorong'iliqqa qarshi kurashkan kabi gulxanni yondirishga tirishar, gulxan tavaragidan aylanib qo'lidag'i kasavi bilan to'rt tomondan kovlar edi."

Ushbu lavha tarjimasini asl nusxa bilan qiyoslab ko'raylik:

Although the moon was already full, its pale orb was hidden behind thick clouds. Night fell, a true ebony, autumn night. The darkness seemed to seep from the hundred year old grove growing profusely by the Hodja Maoz graveyard. The wind picked up, blowing from all sides now, as though wanting to whip everything away somewhere. In a murky corner of the grove, a strange figure lurked by one of the graves. Unkempt and wild, his hair dishevelled, he circled a smouldering stump, poking it with a stick, trying to coax the fire to life. The wind raged, the trees swayed this way and that, noisily shaking off their last leaves. Rooks and ravens, startled from their roosts, circled above, cawing as if protesting against the storm. The wind gained strength, howling and wailing. Unable to withstand this onslaught, the old trees in the graveyard screeched so pitifully as their branches

snapped off with a crack that the eerie Cimmerian darkness which shrouded everything from sight took on an even more terrifying aspect. Finally, whipped into a frenzy, the wind roared with such a furious force as if seeking to crush and... [2, 206]

Ushbu parchada tarjimonning yutuqlari shundan iboratki, “Bir necha yuz yillardan beri yashab favqulodda zo‘rayib ketgan “Xo‘ja Maoz” mozorining chakalagi bu qorong‘iliqqa bir manba‘ kabi edi” jumlasini “The darkness seemed to seep from the hundred year-old grove growing profusely by the Hodja Maoz graveyard” – “bir necha yuz yillardan beri bolta ko‘rmaganligi uchun juda qarovsiz bo‘lib qolgan “Xo‘ja Maoz” mozorining chakalagi ham bu qorong‘ulikqa bir manba kabi ko‘rinardi” deyilgan.

Demak, bu holda “favqulodda zo‘rayib ketgan “Xo‘ja Maoz” mozorining chakalagi” “bolta ko‘rmaganligi uchun juda qarovsiz bo‘lib qolgan “Xo‘ja Maoz” mozorining chakalagi” shaklida o‘girilar ekan, ma‘no nuqtai nazaridan asl matnda nazarda tutilgan mazmun tarjima nusxada to‘la qamrab olingan.

Parchada keltirilgan ayrim lavhalar tarjimasida kamchiliklar kuzatiladi. Masalan, asl matnda “O‘yning o‘n beshlari bo‘lsa-da, havoning bulutlig‘i bilan oy ko‘rinmas, chin ma‘nosi bilan qorong‘i kuzning qorong‘i bir tuni edi” jumlasini “Although the moon was already full, its pale orb was hidden behind thick clouds. Night fell, a true ebony autumn night” shaklida ikkita gap bilan ifodalangan. Bu yerda muallif oy yuzini bulut to‘sgan zim-ziyo kuz tunini ta‘riflagan bo‘lib, tarjimada esa “chin ma‘nosi bilan qorong‘i kuzning qorong‘i bir tuni edi” birikmasi “a true ebony autumn night” – “kuzning bir tuni” tarzida o‘girilgan. Bu o‘rinda muallif urg‘u bermoqchi bo‘lgan qorong‘i kuzning qorong‘i bir tuni nazardan chetda qolgan.

Asarning “Qora kunlar” bobidan bir o‘mak keltirib o‘tamiz:

“Kuz kunlarining oyog‘i va qish kunlarining boshi edi. Daraxtlardagi sariq barglar to‘kilib tugalgan, yer yuzi o‘zining qishqi sariq kiyimini kiygan edi. To‘rt tomonining o‘ralg‘anlig‘i soyasida yaproqlarini to‘kilishdan saqlab qolgan bu gilos yog‘ochlari ham bu kum tungi qora sovuqqa chidalmay, yelning o‘zgina harakati bilanda barglarini shirt-shirt uzib tashlamog‘da edilar. Havo ochiq bo‘lib, quyosh tuzukkina ko‘tarilgan, ammo uning o‘zi ham bu kum uncha ta‘siri yo‘q, bu kungi qora sovuq quyosh kuchini-da keskan edi.” [1, 211]

Abdulla Qodiriy keng ma‘nodagi so‘z san‘atkoridir. Bu parchada muallif kuz mavsumining nihoyalab, qish faslining kirib kelishi holati bilan bog‘liq tabiat tasvirini juda chiroyli o‘xshatishlar va o‘zbekona lutf bilan ta‘riflaydiki, beixtiyor ko‘z o‘ngimizda sovuq kech kuz, daraxtlar barglarini to‘kib, o‘zlari esa xuddi sovuqdan tirayotgandek shamolda qaltirab turishlari gavdalanadi.

Olingan natijalar tahlili va xulosa. Tarjimada so‘z tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Agar tarjimon asliyat muallifining so‘zni qanchalik mahorat bilan tanlaganini his eta olsa, tarjimada ham so‘zni shunchalik ishonchli bera oladi. Shu o‘rinda yuqorida keltirib o‘tgan parchamizga diqqatimizni qaratsak: asliyatta qish kunlarida quyosh chiqib, uning taftidan sovuq zahrining biroz kesilishi, qorlar erishi natijasida, hamma yoqning loy bilan qoplanishi, shuningdek, qo‘rg‘on kungiralaridagi qirovlarning quyosh nuri ta‘sirida erib, bug‘ga aylanib ko‘kka ko‘tarilishi holati tasvirlangan. Ingliz tiliga tarjimasida tarjimonning yutuqlari quyidagi o‘rinlarda ko‘rinadi: “Sovuq biroz yumshab tushkan, quyosh ochiq havoda harakat etmakda edi. Yerlar erib, hamma yoq shilt-pilt loy...” jumlasini “The frost had lessened its bite, the air was milder, the sun hung radiant in the bright sky. The snow was melting into slush underfoot, and steam rose from the ramparts of the fortrees walls”

(mazmuni: “sovuq biroz tingan, havo iliq edi. Qorlar eriganligi sababli hamma yoq shilt-pilt loy edi”) deb tarjima qilingan. Bu yerda ko‘rishimiz mumkinki, tarjimon muallif fikrini angelay olgan.

Xulosa qilib aytganda badiiy asarlarda berilgan tabiat manzaralari tasviri ijodkor badiiy mahoratini namoyon etadigan omillardan biri hisoblanadi. Chunki tabiat manzaralari tasvirida ijodkorning o‘zi qalamga olayotgan makonga murosabati, u joyni qanchalik bilishi, qahramonlar dumiysi va ular yashayotgan muhitni ne chog‘lik chuqur his qilishi bilinadi. Shu bois tabiat manzaralari tasviri badiiy asarning tarkibiy qismi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdulla Qodiri “Days gone by” Nouveau Monde editions, 2018 44, quai Henry –IV -75004 Paris ISBN:978-2-36942-7872
2. Qodiriy A., O‘tkan kunlar, roman. Toshkent, 2013.
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. 2-jild. T.: O‘zbekiston, 1996. Yozici Mine. Çeviribilme Giriş. – İstanbul yayımları, 2001.
4. Бар Л.Б. Анализ художественного произведения.-Т.: Ўқитувчи, 1995.
5. Винокур Г.О. О языке художественной литературы.-М., 1991.
6. Адабиёт назарияси. 2 томлик.-Т., 1979.
7. Бадий таржиманинг актуал масалалари. –Т.: Фан нашриёти, 1977.
8. Жўраев К. Таржима санъати. – Т.: Фан, 1982.
9. Исомиддинов З. Алдоқчи сўзлар билан бахс. // Таржима санъати. 5-китоб. – Т., 1980.
10. Т. Malik. Tanlangan asarlar. 5-jld. T., 2007
11. Иўлдошев И., Т.Ўзтук, Ю.Ўзтук Ўзбек ва турк маколлари ва иборалари. – Т.: Ўзбек – турк лицейлари, 1998.
12. Каримов М. Туркий тиллардан биридан иккинчисига таржима қилишнинг айрим масалалари» Бадий таржима дўстлик курули. Т., - Ўқитувчи, 1990.
13. Комилов Н., Саломов Ф. Таржимон маҳорати. – Т.: Фан, 1979 .
14. Литературный энциклопедический словарь.-М., 1987.
15. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. – Т.: Фан нашриёти, 1966.
16. Qobilova F.T. Babayeva V., O‘zbek tilidagi maqollarni , uning yondosh hodisalarini ingliz tili .nemis tili va rus tillariga qiyoslab o‘rganish. OAK tasarrufidagi “Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti “ jurnali Buxoro 2019 y.